

07.00.00 – TARIX FANLARI

QO'QON XONLIGINING ASHTARXONIY HUKMDOLARI BILAN BO'LGAN O'ZARO SIYOSIY JARAYONLARI TARIXI

Dusaliyev Muysin Tura o'g'li,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.001>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'qon xonligining Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniy sulola vakillari bilan o'zaro siyosiy jarayonlari tarixi tahliliy asosda yoritilgan. Qo'qon xonligida hokimiyat tepasiga kelgan Ming sulolasi vakillarining har birining Buxoro xonligi hukmdorlari bilan aloqalari tarixi tadqiq etildi. Shuningdek Qo'qon xonligining davlatchilik tarixining shakllanishi va hukmdorlarning siyosiy boshkaruvi hamda Buxoro xonligi bilan manfaatlari kesishgan hududlar to'g'risida ma'lumotlar o'r ganildi.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, Buxoro xonligi, Ashtarxoniyalar, Ming urug'i, siyosiy jarayonlar, davlatchilik tarixi, Shohruxbiy, Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Erdonabiy, Abulfayzxon, siyosiy munosabatlar, Jung'or-qalmoqlar, Sin hukumati, Sharqiy Turkiston.

ИСТОРИЯ ВЗАИМОПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА С АШТАРХАНИДСКИМ ПРАВИТЕЛЬСТВОМ

Dusaliyev Muysin Tura ugli,

Шахрисабзский государственный педагогический институт Преподаватель кафедры «Гуманитарные науки»

Аннотация. В данной статье на аналитической основе освещена история взаимо-политических процессов между Кокандским ханством и представителями династии Аштарханидов, правившей Бухарским ханством. Исследована история взаимоотношений каждого из представителей династии Минг, пришедших к власти в Кокандском ханстве, с правителями Бухарского ханства. Также были изучены сведения об истории становления государственности Кокандского ханства и политического руководства правителей, а также сведения о сферах пересечения интересов с Бухарским ханством.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Бухарское ханство, Аштарханиды, династия Мин, политические процессы, история государственности, Шахрухбий, Абдурахимбий, Абдулкаримбий, Эрданабий, Абульфайзхан, политические отношения, Джунгор-калматки, правительство Цинь, Восточный Туркестан.

HISTORY OF MUTUAL POLITICAL PROCESSES OF THE KOKAND KHANATE WITH THE ASHTARGKHANID GOVERNMENT

Dusaliyev Muysin Tura o'g'li,

Shahrisabz state pedagogical institute teacher of the «Social sciences» department

Abstract. This article, on an analytical basis, highlights the history of mutual political processes between the Kokand Khanate and representatives of the Ashtarkhanid dynasty, which ruled the Bukhara Khanate. The history of the relationship between each of the representatives of the Ming dynasty, who came to power in the Kokand Khanate, and the rulers of the Bukhara Khanate has been studied. Information about the history of the formation of statehood of the Kokand Khanate and the political leadership of the rulers, as well as information about the areas of intersection of interests with the Bukhara Khanate were also studied.

Key words: Kokand Khanate, Bukhara Khanate, Ashtarkhanids, Ming dynasty, political

processes, history of statehood, Shahrukhbiy, Abdurakhimbiy, Abdulkarimbiy, Erdanabiy, Abulfayzkhan, political relations, Dzhungor-Kalmaki, Sin government, East Turkestan.

Dolzarbligi. Markaziy Osiyoda mavjud ikki xonlik – Buxoro va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy jarayonlar tarixini o‘rganish tarixchi tadqiqotchilarining asosiy masalalaridan biri sifatida hisoblanadi. Ayniqsa xonliklarni boshqargan hukmron sulolalar o‘rtasidagi aloqalar, shuningdek o‘zaro urushlar mavzusini o‘rganish dolzarb tadqiqot ob’ekti sifatida qaraladi. Hukmron sulola vakillarining boshqaruv tizimini tadqiq qilish davlatchiligidimiz tarixini o‘rganishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi: So‘ngi yillarda O‘zbekistondagi davlatchilik tarixini o‘rganishga qiziqish ortib, bunda mamlakat hududida o‘z vaqtida mavjud bo‘lgan uchta xonlik tarixiga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Natijada mazkur uch xonlik tarixiga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar vujudga keldi. O‘zbek xonliklari tarixini o‘rganish yoki ularning sharq va g‘arb mamlakatlaridagi boshqa davlatlar bilan tashqi siyosiy aloqalari tadqiqi barobarida ayni xonliklarning bir – birlari bilan elchilik munosabatlari massalasi nazardan chetda qolmoqda yoki bu masalaga olimlar nisbatan kamroq ahamiyat bermoqdalar. Vaholanki, ikki xonlikning o‘zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlari tarixi masalasini o‘rganish ularga xos xususiyatlarni aniqlashga katta yordam bergen bo‘lar edi. Ushbu maqolada mavzuni yoritishda tarixiylik, xronologik va qiyosiy-tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek mustaqillik yillaridan so‘ng ushbu mavzu yuzasidan yaratilgan bir qincha tadqiqot ishlari hamda tarixiy manbalarda o‘rganilayotgan masalalar yuzasidan bildirilgan ayrim mulohazalar tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari: Farg‘ona vodiysining mustaqil davlat boshqaruviga erishishi Buxoro xonligidagi siyosiy inqirozidan boshlanadi. Buxorodagi taxtuchunkurash, bosh-boshdoqliklar va nihoyat, Xiva xonlarining Buxoroga qayta-qayta qilgan bosqinchilik yurishlari Abdulazizxonni 1680 yili taxtni ukasi Subxonquliga topshirishga majbur etdi. Abdulazizxonning o‘zi esa xaj ziyyaratiga jo‘nab ketdi. Subxonqulixonga Buxoroda juda og‘ir ahvol meros bo‘lib qolgan edi. Uning hukmronligi davrida ichki va tashqi ahvol yanada og‘irlashdi. Viloyat hukmdorlari mustaqillik talab qilibgina qolmay xazinaga soliq to‘lashdan bosh tortishdi. Xonning o‘g‘illari bilan munosabati urushgacha borib etdi. Xususan, Samarqand viloyati hokimi Xoqiqulibiy o‘tarchi urushish uchun Xiva xoni Anushaxonga qo‘sildi. Xiva qo‘sishlari Buxoro, Karmana, Vardonze va xatto Samarqandgacha etib keladi.

Samarqand olingach Anushaxonning nomiga xutba o‘qilib, uning nomiga tanga zabit etirildi. Badaxshon hokimi Mahmudbiy yordamida xivaliklarni zo‘rg‘a quvib chiqargan Subxonqulixon Balxga qo‘sish tortib, o‘g‘li Siddiq Muhammadni xibsga olib uni qatl ettiradi. Bu vaqtida (1686 yil) Anushaxon saroyida fitna uyushtirilib xon ham qatl etiladi. Lekin ahvol yaxshilanmadni. Shunday bir og‘ir sharoitda bo‘lmachilik harakatlaridan biri Farg‘onada yuz bermoqda edi. 1708 yili Targ‘ova, Pillaxon, To‘qaytepa, Parnok, Tepaqa‘rg‘on va Qaynar mavzelarining xo‘jayinlari bo‘lmish nufuzli xojalar jamoasi o‘zlarini mustaqil deb e’lon qiladilar. Xuddi shu paytda Ubaydullaxon tazyiqiga uchragan va mamlakatda nufuzi ortib ketgan minglar qabilasi mustaqillik uchun kurashib, qabila oqsoqollari kengashidan keyin (1709 yili) xojalar jamoasini ag‘darib, ming sulolasini vakillarini Farg‘onada mustaqil davlatga asos soladilar. Oqsoqollardan biri bo‘lgan Shohruxbiy esa xon deb e’lon qilinadi. Shu tariqa Farg‘ona vodiysi Buxoro xonligiga bo‘ysunishdan bosh tortdi va o‘zini mustaqil deb e’lon qiladi.

Shunday qilib Qo‘qon xonligiga Ming qabilasining boshlig‘i Shohruxbiy ibn Ashur Muhammad asos solgan. Bu urug‘ vakillari XVIII asrning boshlarida hokimiyatni xo‘jagon sulolasining qo‘lidan kuch bilan tortib olgan edi. Xo‘jagon sulolasini – ruhoniyasab Sharqiy Turkistonning hokimlari bo‘lgan. Xo‘jalar Sharqiy va G‘arbiy Turkistonda hukm surgan chig‘atoy hokimlari davrida katta mansab va vazifalarga ega bo‘lgan hamda qo‘llarida qudratli iqtisodiy va siyosiy kuch mavjud edi. Qoraxo‘jalarga mansub Offoqxo‘ja Sin hukumatini tan-

olgan bo‘lsa, Oqxo‘jalarga mansub Maxdumi A’zamning o‘g‘li Muhammadamin esa Sin hukumatini tan olmagan. Shu sababli Xitoy Sharqiylar Turkiyasi bostirib kirganida Oqxo‘jalar G‘arbiy Turkiyasi, ya’ni Qo‘qon xonligiga o‘tib qoladi. Shohruhbiy ham o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida xo‘jalar bilan ittifoq tuzadib shuningdek ittifoqchilikni yanada mustahkamlash maqsadida Chodak xo‘jalaridan birining qiziga uylanadi. Poytaxt shaharni ham Eski qo‘rg‘ondan Qo‘qonga ko‘chirtiradi. Shohruhbiy xon taxtiga o‘tirgandan so‘ng barcha o‘zini qo‘llab-quvvatlaganlarga O‘rdaning atrofidan hovli-joy beradi, shuningdek har qaysinising iste’dodiga qarab mansabga tayinlaydi. Shohruhbiy Qo‘qon xonligini Buxoro xonligidan ajratib olgan bo‘lsada, uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to‘la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniy Abulfayzxondan so‘ng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqda tadqiqotchilarining ham fikrlari munozaralidir. Nima bo‘lganda ham, Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo‘lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi erlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo‘lida bo‘lgan. Qo‘qon xonligi va Buxoro xonligi o‘rtasidagi munosabatlar asosan hududlar borasidagi mojarolar, o‘zaro urushlardan iborat bo‘lgan. Ko‘lob, O‘ratepa, Xo‘jand ikki davlat o‘rtasidagi doimiy talash bo‘lgan hududlardan bo‘lib qolaverdi, ayrim vaqtarda bu hududlar Qo‘qon xonligi tasarrufida bo‘lsa, ayrim vaqtarda u urush yo‘li bilan Buxoro amirligi hududiga qo‘sib olingan. Shohruhbiyning hukmronligi davrida O‘sh, O‘zgan, Xo‘jand mustaqil qoladi, mamlakatning shimoliy chegarasi Namanganning shimoligacha borgan edi. Shohruxxon 12 yil hukmronlik qilib, 13-yilida vafot etadi. Shohruxxondan Abdurahimbek, Abdulkarimbek va Shodibek ismli uch o‘g‘il tug‘ilgan. Davlatlar o‘rtasidagi nizoli vaziyatlarni Shohruhbiyning o‘g‘li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) davrida ham ko‘rish mumkin. Abdurahimbiy juda hushyor, dono hamda ziyrak bo‘lgan. Uning hukmronligi davrida Buxoro xonligi juda zaif va parokanda ahvolda edi, mansabdorlarni davlat ishlari qiziqtirmay qo‘ygandi. Shu vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Abdurahimbiy atrofiga qariyib o‘ttiz ming askarni yig‘di. Albatta, bu davrda Buxoro xonligi taxtida o‘tirgan Ashtarxoniyalar sulolasining vakili Abulfayzxonni ham hukumat ishlari umuman qiziqtirmay qo‘yanligini ta‘kidlashimiz lozim. Abdurahimbiy 1724 yilda Andijonni bosib olgandan so‘ng, 1725 yilda Xo‘jandga yurishni boshlaydi va bir kecha-kunduzda Xo‘jand shahriga etib borib, sahar vaqt shaharni qo‘lga kiritadi. Yuz urug‘idan bo‘lgan shahar hokimi Oqbo‘tabiy muzokara olib borishdan bosh tortadi va tez orada vafot etadi. 1726 yilda O‘ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo‘sib oldi. U qisqa muddat bo‘lsada Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo‘rg‘onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Xususan, 1729-1730 (ba’zi manbalarda hijriy 1145, milodiy 1732) yilda Abdurahimbiy Samarqandga yurish qilib, shaharni qamalga oladi. Lekin shahar a‘yonlari va oqsoqollarini bir necha kun o‘tmay, shahar darvozalarini ochib beradi. Bu vaqtida Turkistonning ko‘p joylarida qabila va urug‘lar o‘zaro urush va janglar bilan mashg‘ul edi. Shu bois Abdurahimbiy qabila va urug‘ rahbarlari bilan ittifoq tuzib, davlat chegaralarini kengaytiradi. Shahrisabz volysi Ibrohim otaliq kenagas bilan esa qarindosh bo‘lib, uning qiziga uylanadi. Minglarning kenagas urug‘i bilan tuzgan bu ittifoqi XIX asrning 60- yillarigacha davom etadi. Ammo orada olti oy o‘tmay, Buxoro xoni Abulfayzxon Samarqandni o‘z tasarrufiga qayta kiritadi. Abdurahimxon bundan xabardor bo‘lgach, Qo‘qondan Xo‘jandga kelganida o‘ldiriladi va o‘rniga Abdulkarimbek ibn Shohruxbiy (1734-1750) xon bo‘ldi.

Muhammad Abdulkarimbek milodiy 1703 yilda tug‘ilib, hokimiyat tepasiga kelishdan oldin valiahd sifatida Namangan shahrida hokim vazifasini bajarib kelar edi. Abdulkarimbek hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng asosiy e’tiborni mamlakatning mudofaa ishlariiga e’tiborini qaratadi. Uning hukmronligi davrida poytaxt shahar atrofi qo‘rg‘on bilan o‘ralib, Isfara, Qatag‘on, Marg‘ilon, Haydarbek nomli to‘rtta darvoza qurdirtiradi. Abdulkarimbiyning

mudofaa ishlariga e'tiborini qaratgani bejizga emas edi. Buning sababi Abdulkarimbiyning otasi va bobosi asosan mamlakatni tashqi siyosatiga e'tibor qaratib, mamlakat chegara hududlarni o'zga erlarni bosib olish evaziga kengaytirishni maqsad qilgandi. Xalqaro maydonda mamlakatning asosiy manfaati asosan Buxoro xonligi bilan to'qnash kelardi. Shu orada Qo'qon xonligining shimoliy va shimoli-sharqiy tomondan chegaradosh hududlarda yashab kelayotgan ko'chmanchi qabilalarning ham tez-tez hujumlari yuz beradi. Bu esa mamlakatning oldingi yillardagi bosqinchilik urushlari natijasida mudofaa ishlari sezilarli darajada susayganligidan dalolat berardi. 1741-1745 yillarda Farg'ona jung'orlarning hujumidan so'ng Abdulkarimbiy qipchoq-qirg'izlar va O'ratega hokimi Fozilbiy yuzni yordamiga murojaat qiladi hamda ular bilan birgalikda jung'orlarga qarshi urush olib boradi. Shuning o'zi ham mamlakatning harbiy holati oldingi yillardagi urushlar natijasida zaiflashganligini ko'rsatadi. Shunday bo'lsada Buxoro xoni Abulfayzxonning iltimosiga ko'ra Abdulkarimbiy To'raqo'rg'on va Samarqandga yurishlar qiladi. Buxoro xonligining Miyonqolida 1745 yilda Ibodullohbiy rahbarligida xitoy-qipchoqlar qo'zg'olon ko'taradi. XIX asrning boshlarida Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysiga qalmoqlar, uyg'urlar, qirg'izlar, qoraqalpoq va qozoq-qipchoqlar ko'chib kelishadi. Farg'ona vodiysi XVIII asrning o'rtasida ko'plab xalq va jamoalar uchun bo'ladi.

O'z navbatida xonlikda hayot o'z yo'liga tusha boshladi. Mamlakatning xo'jalik va madaniy hayoti rivojlanishi ko'zga tashlanib qoldi. Qalmoqlarning hujumi 1749 yilga kelib tinchlik sulhi tuzilishi bilan yakunlandi. Sulh shartlariga ko'ra, qalmoqlar vataniga qaytganiga qadar qozoq dashtlarida yashab turish hamda ularga o'troq hayot tarzida yashayotgan xalqlar bilan savdo-sotiq qilish huquqlariga ega bo'lishadi. Qalmoqlar esa Qo'qon xonligi hududlariga bostirib kirmaslik shartini zimmasiga olishadi. Qalmoqlar hamda Qo'qon xonligi o'rtasidagi ittifoqni yanada mustahkam, to'liq ishonarli bo'lishi uchun jung'or-qalmoqlar o'z tomonidan bir shahzodani Qo'qonga jo'natadi va Qo'qondan esa Bobobek ibn Abdulkarimbiy ko'chmanchilarning qarorgohiga yuboriladi. Xon Abdulkarimbiy 1750-yil vafot etadi. Xon vafotidan so'ng shahzoda Bobobek ham ko'chmanchilar qarorgohidan ozod etilib qo'yib yuboriladi. Buning sababi esa jung'or-qalmoqlarning manfaati uchun taxtga Bobobek ibn Abdulkarimbiy o'tirgani ma'qul edi. Taxtga esa Abdulkarimbiyning boshqa bir o'g'li Abdurahmon o'tiradi. Oradan ko'p o'tmasdan taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy chiqadi. O'rategaga yurishi vaqtida Bobobek Beshqirda qatl etiladi hamda Erdonabiyning hokimiyati yanada mustahkamlanadi.

Abdurahimbiydan so'ng Erdonabiy ham Xo'jand va O'rategaga yurish qiladi, biroq uning bu yurishlari muvaffaqiyatli yakun topmaydi. Shunday bo'lsada Erdonabiy Xitoyning Qo'qon xonligiga va Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston – Koshg'ar ishlariga dahl qilmasligi haqida shartnomma tuzilishiga hamda ancha muddat tinchlik o'rnatilishiga erishadi. Xulosa qilib aytganda, XVIII asrning 60-yillariga kelib albatta Buxoroda ham hokimiyat tepasida hukmron sulolaning nomi o'zgaradi. Bu davrga kelib hokimiyat to'liq Mang'itlar sulolasining qo'liga o'tib ketadi. Qariyb 50 yil davomida Ashtarkoni va Minglar sulolasining manfaatlari asosan hududlarga bo'lgan davolarda kesishdi. Buxoroda Ashtarkoniylarning kuchlari zaiflashishi Qo'qonda Ming urug'i sulola vakillarining hokimiyatda yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Polvonov N.T., Sheripov U.A. Qo'qon va Xiva xonliklarining o'zaro elchilik aloqalari tarixiga doir (XIX asr). Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi – 1/2019. – B. 55-60.
2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlod, 2012. – 558 b.
3. Shamsutdinov R, Mo'minov H. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining notarix fakultetlari uchun o'quv qo'llanma). – T.: "Sharq", 2013. 270-bet.

4. Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiy. Tarixiy jahonnamoiy, II jild // Qo‘lyozma O‘Z FAShI – № 9455. – 343 b.
5. Mirzo Salimbek. Tavorixi muttaqadamin va muttaaxirin. Fors- tojik tilidan N.Yo‘ldoshev tarjimasi – Buxoro. 2003. – B. 292-297.
6. Muhammad Xakimto‘ra. Muntaxab ut tavorix. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2008. – B.175-176.
7. Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston . – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 256 b.
8. Тарихи Шахрохи – История владетелей Ферганы; Сочинения муллы Нияз Мухаммадбек Ашур Мұхаммад Хокандса, изданное Н.Н.Пантусовым – Казан: 1885. – 333 с
9. Mirzo Olim Toshkandiy. Qo‘qon xonligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2001.
10. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Riyoz ud-davlat, V jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 1978 . – B.156.
11. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogaxiy. Zubdatu-t-tavorix: tarixlar sarasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 137-149.
12. Веселовский Н. Рес. на кн. Краткая история Кокандского ханства / Составил В. Наливкин. Ч. VI. – Казан: 1886. – 215 с
13. Xudayqulov Tulqin Do‘stboboevich. XIX asrda qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tar. fan. nom. diss. – T.:2009. – 172 b.
14. Ikromjon Kuzikov. Qo‘qon xonligi tarixi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Namangan nashriyoti, 2014. – 86 b.